



SOCIAL FACTORS OF ENSURING THE SPIRITUAL STABILITY OF SOCIETY IN A SECULAR STATE

Naimakhon Inomidinovna Zaynobidinova

Associate Professor, Namangan State Pedagogical Institute

E-mail: naimaxon@gmail.com

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: secular state, spiritual stability, social factor, freedom of conscience, religious tolerance, civil society, legal equality, family upbringing, education system, national value, information culture.

Received: 27.04.26

Accepted: 28.04.26

Published: 29.04.26

Abstract: This article explores the essence of the concept of spiritual stability, highlighting its integral connection to societal development, civil solidarity, an environment of tolerance, and legal culture. The author argues that the primary function of a secular state is to ensure a fair legal balance between diverse religious and secular views within society, guarantee freedom of conscience for its citizens, and strengthen overall spiritual harmony. The article provides a detailed examination of the impact of legal equality, religious tolerance, the education system, family upbringing, civil society institutions, mass media, and national values on spiritual stability.

DUNYOVIY DAVLATDA JAMIYAT MA'NAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOY OMILLARI

Naimaxon Inomidinovna Zaynobidinova

Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti

E-mail: naimaxon@gmail.com

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Dunyoviy davlat, ma'naviy barqarorlik, ijtimoiy omil, vijdon erkinligi, diniy bag'rikenglik, fuqarolik jamiyati, huquqiy tenglik, oilaviy tarbiya, ta'lim tizimi, milliy qadriyat, axborot madaniyati.

Annotatsiya: Maqolada ma'naviy barqarorlik tushunchasining mazmuni, uning jamiyat taraqqiyoti, fuqarolik hamjihatligi, bag'rikenglik muhiti va huquqiy madaniyat bilan uzviy bog'liqligi yoritilgan. Muallif dunyoviy davlatning asosiy vazifasi jamiyatdagi turli diniy va dunyoviy qarashlar

o'rtasida adolatli huquqiy muvozanatni ta'minlash, fuqarolarning vijdon erkinligini kafolatlash hamda umumiy ma'naviy uyg'unlikni mustahkamlashdan iborat ekanini asoslaydi. Maqolada huquqiy tenglik, diniy bag'rikenglik, ta'lim tizimi, oilaviy tarbiya, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va milliy qadriyatlarning ma'naviy barqarorlikka ta'siri batafsil ko'rib chiqiladi.

СОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ДУХОВНОЙ СТАБИЛЬНОСТИ ОБЩЕСТВА В СЕКУЛЯРНОМ ГОСУДАРСТВЕ

Наимахон Иномидиновна Зайнобидинова

Доцент Наманганского государственного педагогического института

E-mail: naimaxon@gmail.com

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: светское государство, духовная стабильность, социальный фактор, свобода совести, религиозная терпимость, гражданское общество, правовое равенство, семейное воспитание, система образования, национальные ценности, информационная культура.

Аннотация: В данной статье исследуется сущность понятия духовной стабильности, подчеркивается ее неразрывная связь с развитием общества, гражданской солидарностью, атмосферой толерантности и правовой культурой. Автор утверждает, что основная функция светского государства заключается в обеспечении справедливого правового баланса между различными религиозными и светскими взглядами в обществе, гарантировании свободы совести его граждан и укреплении общей духовной гармонии. В статье представлен подробный анализ влияния правового равенства, религиозной толерантности, системы образования, семейного воспитания, институтов гражданского общества, средств массовой информации и национальных ценностей на духовную стабильность.

Kirish. Ma'naviy barqarorlik deganda jamiyat a'zolarining ezgulik, adolat, bag'rikenglik, o'zaro hurmat, qonunga itoat va fuqarolik mas'uliyati kabi qadriyatlarga tayangan holda yashashi tushuniladi. Bunday barqarorlik faqat iqtisodiy farovonlik yoki siyosiy tartib orqali emas, balki insonning ichki dunyosi, e'tiqodi, axloqiy qarashlari va umumiy madaniy muhit uyg'unligi orqali vujudga keladi. Dunyoviy davlatning ustun tomoni shundaki, u jamiyatdagi turli e'tiqodlar, dunyoqarashlar va ijtimoiy guruhlar uchun teng huquqiy maydon yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanishi, har kim xohlagan dinga e'tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga egaligi mustahkamlangan [1].

Masalaning mohiyatiga chuqurroq nazar tashlansa, dunyoviylikning o'zi dinni inkor etish emasligi ayon bo'ladi. Dunyoviy davlat diniy qadriyatlarni rad etmaydi, balki davlat hokimiyatining muayyan bir diniy aqidaga bo'ysunib qolishining oldini oladi. Shu sababli u jamiyatda diniy xilma-xillikni mojaroga emas, me'yoriy hamkorlikka aylantirishga intiladi. Ma'naviy barqarorlik ham aynan mana shu muvozanatli yondashuv orqali yuzaga keladi. Agar davlat bir e'tiqodni boshqalaridan ustun qo'ysa, ijtimoiy begonalashuv kuchayadi, fuqarolik birdamligi zaiflashadi va ma'naviy maydonda adolatsizlik hissi paydo bo'ladi. Aksincha, davlat barcha fuqarolarning sha'ni va e'tiqod erkinligini bir xil himoya qilsa, odamlar o'zini umumiy jamiyatning teng a'zosi sifatida his etadi. Bu esa ma'naviy muhitda o'zaro ishonch, hurmat va bag'rikenglikni mustahkamlaydi. Xalqaro huquqda ham din yoki e'tiqod erkinligi insonning fundamental huquqi sifatida e'tirof etilgan bo'lib, BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa hujjatlari aynan shu tamoyilni ilgari suradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta'lim sohasi bu mavzuda alohida o'rin tutadi. Chunki ma'naviy barqarorlik tasodifan yuzaga kelmaydi, u izchil tarbiya va bilim asosida shakllanadi. Dunyoviy davlat ta'lim tizimida ilmiy tafakkur, tanqidiy fikrlash, huquqiy ong va umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlashi lozim. Shu bilan birga, diniy savodsizlikka ham yo'l qo'ymasligi kerak. Chunki diniy bilimning mutlaqo yo'qligi ko'pincha yuzaki stereotiplar, xurofiy talqinlar yoki radikal g'oyalarning kuchayishiga zamin yaratadi [2]. Sog'lom ta'lim muhiti yosh avlodga bir vaqtning o'zida ikki muhim narsani beradi: birinchidan, ilmiy dunyoqarash va fuqarolik mas'uliyati; ikkinchidan esa dinlar tarixi, bag'rikenglik, e'tiqod erkinligi va axloqiy qadriyatlar haqida to'g'ri tasavvur. Ana shu uyg'un yondashuv ma'naviy barqarorlikning mustahkam poydevorini yaratadi. Ta'limda biryoqlama diniylashtirish ham, ma'naviy bo'shliq hosil qiluvchi beparvolik ham barqaror natija bermaydi.

Oila instituti ham ma'naviy muhitni belgilovchi eng kuchli ijtimoiy omillardan biridir. Insonning dastlabki tasavvurlari aynan oilada shakllanadi. Bola yaxshi va yomon, halol va harom, hurmat va bepisandlik, bag'rikenglik va tajovuz kabi tushunchalarni avvalo oilada anglaydi. Dunyoviy davlat oilaning diniy tarbiya berish huquqini e'tirof etadi, biroq bu tarbiya bolaning huquqlari, ta'lim olish imkoniyati va kelajakda ongli tanlov qilish erkinligiga zid bo'lmasligi kerak. Ota-onaning e'tiqodi bilan bolaning mustaqil shaxs sifatida shakllanishi o'rtasidagi muvozanatni saqlash ma'naviy barqarorlikning nozik, ammo muhim shartidir. Oilada mehr, adolat, sabr, hurmat va mas'uliyat kabi qadriyatlar shakllansa, jamiyatda ham ana shu

sifatlar kuchayadi. Aksincha, oiladagi zo‘ravonlik, majburlash yoki mutaassiblik jamiyatning umumiy ma‘naviy holatiga salbiy ta‘sir qiladi.

Fuqarolik jamiyati institutlari mazkur masalada vositachi va birlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi. Nodavlat tashkilotlar, mahalla, xayriya tuzilmalari, madaniy markazlar, ilmiy-ma‘rifiy muassasalar va diniy tashkilotlar jamiyatda ijtimoiy birdamlikni kuchaytirishi mumkin. Dunyoviy davlat bunday institutlarga qonuniy va shaffof maydonda faoliyat yuritish imkonini yaratsa, ular ma‘naviy barqarorlikni mustahkamlovchi ijobiy kuchga aylanadi [3]. Ayniqsa ehtiyojmandlarga yordam, ma‘naviy-ma‘rifiy suhbatlar, yoshlar bilan ishlash, oilaviy muammolarni yumshatish va jamoaviy birdamlikni oshirish yo‘nalishlarida fuqarolik jamiyati beqiyos hissa qo‘shadi. Bu yerda muhim nuqta shundaki, davlat hamma ma‘naviy vazifani yolg‘iz o‘zi bajarolmaydi. Jamiyat ichidagi sog‘lom tashabbuslar, ayniqsa huquqiy maydonda ishlaydigan diniy va ma‘rifiy tashkilotlar ma‘naviy muvozanatni saqlashda amaliy yordam beradi.

Ommaviy axborot vositalari va raqamli makon ham bugungi davrda ma‘naviy barqarorlikka kuchli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Axborot oqimi tezlashgan sari jamiyatning ma‘naviy immuniteti yanada muhim bo‘lib bormoqda. Chunki inson ongiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi ekstremistik, tajovuzkor, yolg‘on yoki manipulyativ g‘oyalar internet orqali juda tez tarqalishi mumkin. Dunyoviy davlat bunday tahdidlarga qarshi faqat taqiq bilan emas, balki media savodxonlik, ochiq muloqot, ishonchli ma‘lumot va tanqidiy tafakkur orqali javob berishi samaraliroq bo‘ladi. Axborot erkinligi bilan ma‘naviy xavfsizlik o‘rtasidagi muvozanat aynan shu yerda namoyon bo‘ladi. Jamiyat o‘z qadriyatlarini anglagan, axborotni tahlil qila oladigan, provokatsiyaga berilmaydigan bo‘lsa, ma‘naviy barqarorlik ham mustahkam bo‘ladi. Shu bois raqamli davrda ma‘naviy tarbiya va media savodxonlikni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida, avvalo, tahlil va sintez metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar yordamida dunyoviy davlatning nazariy asoslari, ma‘naviy barqarorlikning mazmun-mohiyati hamda uni shakllantiruvchi ijtimoiy omillar ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy manbalar asosida o‘rganildi. Mavzuga oid qarashlar alohida qismlarga ajratib tahlil qilindi, so‘ng ular o‘zaro bog‘liq holda umumlashtirildi. Bu esa dunyoviy davlatda ma‘naviy barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiluvchi huquqiy tenglik, bag‘rikenglik, ta‘lim, oila, fuqarolik jamiyati va ommaviy axborot vositalarining o‘rmini yaxlit tarzda yoritish imkonini berdi. Tadqiqotda tizimli yondashuv metodidan ham keng foydalanildi. Mazkur metod asosida ma‘naviy barqarorlikka ta‘sir etuvchi omillar alohida-alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq yagona tizim sifatida tahlil qilindi. Jumladan, huquqiy kafolatlar, ta‘lim siyosati, oilaviy tarbiya, diniy bag‘rikenglik, fuqarolik jamiyati faolligi va axborot makoni bir-biriga ta‘sir etuvchi elementlar

sifatida qaraldi. Bu yondashuv orqali ma'naviy barqarorlikni faqat bitta omil bilan izohlab bo'lmashligi, uning ko'p qatlamli ijtimoiy jarayon ekani ko'rsatib berildi. Natijada mavzu yuzasidan chiqarilgan xulosalar yanada mukammal va asosli bo'lishiga erishildi. Shuningdek, tadqiqotda interpretativ yondashuvdan foydalanilib, ma'naviy barqarorlik, bag'rikenglik va dunyoviylik kabi tushunchalarning mazmuni faqat lug'aviy yoki normativ jihatdan emas, balki ijtimoiy amaliyot kontekstida sharhlandi. Bu usul ayniqsa olimlar polemikasini tahlil qilishda muhim bo'ldi. Chunki turli mualliflar bir xil hodisaga turlicha yondashadi va ularning qarashlari o'rtasidagi ma'no tafovutlarini ochib berish interpretativ yondashuv orqali amalga oshirildi. Shu tariqa maqolada nazariy qarashlarning oddiy bayoni emas, balki ularning ichki mantiqi va amaliy ahamiyati ham ko'rsatildi.

Muhokama va natijalar. Ma'naviy barqarorlikning yana bir muhim ijtimoiy omili milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligidir. Dunyoviy davlat o'z tarixiy-madaniy merosidan uzilib qolmasligi kerak. Aksincha, xalqning asrlar davomida shakllangan odob-axloq me'yorlari, oila qadriyatlari, mehr-oqibat, qo'ni-qo'shnichilik, ilmga hurmat, kattaga izzat, kichikka mehr kabi tamoyillar zamonaviy fuqarolik jamiyati ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirilishi zarur. Bunda ma'naviy barqarorlik jamiyatning o'tmishiga ko'r-ko'rona yopishib olish bilan emas, balki foydali merosni zamon talabi bilan uyg'unlashtirish orqali ta'minlanadi [4]. Milliy madaniyatdan uzilgan sekulyarlik ham, zamonaviy huquqiy mezonlarni rad etuvchi an'anaparastlik ham barqaror model bera olmaydi. Uyg'unlik esa jamiyatga ichki tayanch beradi.

Diniy erkinlik va jamoat xavfsizligi o'rtasidagi muvozanat ham ma'naviy barqarorlikning amaliy sharti hisoblanadi. Insonning e'tiqod erkinligi mutlaq ichki huquq sifatida himoyalansada, diniy amaliyotning tashqi ko'rinishlari boshqalarning huquqlari, jamoat tartibi va xavfsizligi bilan muvofiqlashtiriladi. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarda ham aynan shunday yondashuv aks etgan. Bu yerda asosiy mezon shundan iboratki, davlat qonuniy xavfsizlikni ta'minlash bahonasida asossiz cheklovlarga yo'l qo'ymasligi, diniy guruhlar esa erkinlikni qonundan tashqari imtiyoz deb talqin qilmasligi kerak. Muvozanat yo'q joyda ma'naviy barqarorlik ham zaiflashadi. Chunki haddan tashqari taqiq norozilikni, cheksiz bo'shliq esa radikallashtirishni kuchaytirishi mumkin.

O'zbekiston sharoitida mazkur masalaning dolzarbligi yanada yuqori. Chunki mamlakat ko'p millatli, turli diniy an'analarga ega va yangilanayotgan huquqiy-demokratik tizimni shakllantirish yo'lidan bormoqda. Konstitutsiya va amaldagi qonunchilik vijdon erkinligini kafolatlaydi, fuqarolarning dinga munosabatidan qat'i nazar tengligini ta'minlaydi va diniy tashkilotlar faoliyatini qonun asosida tartibga solidi [5]. Bu modelning ma'naviy ahamiyati shundaki, unda e'tiqod ham, fuqaroviy birlik ham bir-biriga qarshi qo'yilmaydi. Aksincha,

jamiyatning ma'naviy osoyishtaligi umumiy qonuniy maydon, bag'rikenglik va fuqarolik mas'uliyati orqali mustahkamlanadi. So'nggi yillarda bu yo'nalishdagi rasmiy yondashuvlarda ham vijdon erkinligini ta'minlash, dinlararo totuvlikni saqlash va ma'rifiy ishlarni kuchaytirish masalalari alohida qayd etilgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, dunyoviy davlatda jamiyat ma'naviy barqarorligini ta'minlash birgina huquqiy norma yoki ma'muriy choraga bog'liq emas. Bu ko'p qatlamli ijtimoiy jarayon bo'lib, huquqiy tenglik, vijdon erkinligi, bag'rikenglik madaniyati, sifatli ta'lim, sog'lom oila muhiti, fuqarolik jamiyati faolligi, media savodxonlik, milliy-madaniy meros va jamoat xavfsizligi o'rtasidagi nozik muvozanatga tayanadi. Shunday ekan, dunyoviy davlatning bosh vazifasi jamiyatdagi turli e'tiqod va dunyoqarashlarni huquqiy maydonda uyg'unlashtirish, ularni umumiy axloqiy-ma'naviy mas'uliyat bilan bog'lash va kelajak avlod uchun tinch, adolatli hamda ma'rifatli ijtimoiy muhitni ta'minlashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 80 b.
2. Rahimova N. O'zbekistonda diniylik va dunyoviylik munosabatlari // *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 2025. – №. 7. – С. 114-120.
3. Ergasheva S.U. Diniylik va dunyoviylik uyg'unligining jamiyat hayotida aks etishi // *MASTERS*, 2025. – №. 4. – P. 21-23.
4. Doniyorov X. Dunyoviylik – O'zbekistonda demokratik taraqqiyotning metodologik asosi // *IMRAS*. – 2024. – №. 2. – P. 87-96.
5. Sharipov A. Z. Milliy g'oyani rivojlantirish va ma'naviy qadriyatlar transformatsiyasida ma'rifiylik va dunyoviylik tamoyillarining o'ziga xosligi // *SamDI ilmiy axborotnomasi*, 2021, No. 4 (128/1). – B. 44-48.